

XITOIY SHOIRASI BIN SIN SHE'RLARINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Dilafruz Sodiqova Azimjon qizi

TDSHU mustaqil izlanuvchi

dilafruzusmonova791@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr zamonaviy xitoy adabiyotining yirik namoyandasi, bolalar adabiyoti va lirik she'riyat asoschisi Bin Sin (Bīng Xīn) ijodining lingvopoetik tabiati tahlil qilinadi. Shoiraning "Yulduzlar" (繁星 — Fánxīng) va "Bahor suvlari" (春水 — Chūnshuǐ) to'plamlari asosida uning lisoniy tanlov falsafasi, iyeroglifik vizualligi, mikrostrukturalar kesimidagi sintaktik parallelizm hamda kognitiv metaforalari lingvistik va poetik sintezda tadqiq etilgan. Tadqiqotda Bin Sin uslubining o'ziga xos "mayinlik va nafosat" (婉约 — wǎnyuē) estetikasi konkret lisoniy dalillar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bin Sin, lingvopoetika, lisoniy tanlov, iyeroglif poetikasi, sintaktik parallelizm, kognitiv metafora, Wénzhì, mikrostruktura.

Kirish

Badiiy matn barcha lisoniy sathlarning o'zaro uzviy va ichki qonuniyatli simmetriyasidan tashkil topuvchi murakkab kognitiv-estetik modeldir. Xitoy tilshunosligida stilistika va lingvopoetika yo'nalishlari shakllanishida nutqning nafaqat semantik yoki struktur, balki uning vizual-grafik va tonal tabiati ham markaziy o'rinni egallaydi. Zamonaviy xitoy she'riyatida (新诗 — Xīnshī) qadimgi klassik an'analar (格律 — gélǜ) hamda g'arb erkin she'riyati (free verse) sintezini muvaffaqiyatli amalga oshirgan ijodkorlardan biri — Xie Vanying (Xie Wányíng), adabiy taxallusi bilan **Bin Sin** (冰心 — Bīng Xīn) hisoblanadi. Shoiraning ismi "Yurak muzdek musaffo" (一片冰心在玉壶) klassik satridan olingan bo'lib, uning butun lisoniy tanlov tizimi, uslubiy distributsiyasi va lingvopoetik tabiati ana shu "musaffolik va beguborlik" kognitiv metaforasi atrofida shakllangan. Uning "Yulduzlar" (繁星 — Fánxīng, 1923) va "Bahor suvlari" (春水 — Chūnshuǐ, 1923) to'plamlari xitoy lingvopoetikasida mikro-matnlarni tahlil qilishning eng mukammal namunalari sanaladi.

Konfutsiy tomonidan asos solingan "nafosat hamda madaniyat" (文质 — wénzhì) konsepsiyasiga ko'ra, tashqi lisoniy bezak (wén) va ichki tabiiy mazmun (zhì) simmetriyada bo'lishi shart. Bin Sin she'riyatida lisoniy birliklarning tanlanishi ortiqcha ritorik bezaklardan (修辞学 — xiūcíxué) xoli bo'lib, maksimal darajada samimiylik va loqonizmga asoslanadi. Shoira g'arb falsafiy oqimlari (xususan, hind mutafakkiri R.Tagor falsafasi) va an'anaviy xitoy tafakkurini lisoniy qatlamlarda uyg'unlashtiradi. U yaratgan lirik miniatyuralar o'ta qisqa, biroq leksik yuklamasi jihatidan nihoyatda zich. Vang Li (Wáng Lì) ta'kidlaganidek, xitoy tilining moslashuvchan "kaleydoskop" tabiati Bin Sin she'rlarida har bir iyeroglifning o'ziga xos semantik funktsiya bajarishini ta'minlaydi.

Uning leksikonida uchta dominant kognitiv makrokategoriya mavjud: **Ona** (母亲 — mǔqīn), **Bolalik** (童年 — tóngnián) va **Tabiat** (自然 — zìrán). Shoir uchbu tushunchalarni ifodalash uchun til tizimidan eng mayin va emotsional bo‘yoqdor so‘zlarni saralab oladi.

Xitoy tilining o‘ziga xos iyeroglifik tabiati tufayli matn nafaqat fono-audial, balki vizual-grafik estetika ham kasb etadi. Chi Gong (Qǐ Gōng) ta’kidlaganidek, iyeroglif radikallarining matndagi chastotasi o‘quvchida muayyan psixologik fon yaratadi. Bin Sin she’riyatida suv, tabiat va yorug‘lik timsollarini berishda ushbu vizual elementlardan mahorat bilan foydalanilgan. Masalan, uning "Bahor suvlari" to‘plamidagi mikro-matnlarni tahlil qilganda, "suv" (氵 — shuǐ) radikaliga ega iyerogliflarning yuqori statistik ko‘rsatkichi ko‘zga tashlanadi:

春水 (Chūnshuǐ — Bahor suvlari): 江 (jiāng — daryo), 河 (hé — daryo), 湖 (hú — ko‘l), 海 (hǎi — dengiz), 潮 (cháo — suv qalqishi), 波 (bō — to‘lqin), 流 (liú — oqim).

Ushbu iyerogliflarning she’r satrlarida zanjirsimon joylashishi o‘quvchi ongida u matn mazmunini to‘liq idrok etmasidanoq vizual "namlik", dinamik oqim va gidrologik atmosfera hissini uyg‘otadi. Quyidagi jadvalda Bin Sin leksikasidagi vizual-grafik radikallarning estetik vazifalari tizimlashtirilgan.

Iyeroglif Radikali (Kalit)	Qo‘llanish obyekti va lisoniy birliklar	Estetik-Lingvopoetik vazifasi
"Suv" radikali (氵)	水 (suv), 波 (to‘lqin), 泪 (yosh), 深 (chuqur)	Hayotning cheksiz oqimi, kognitiv chuqurlik va emotsional g‘amginlik semasi.
"Olov / Yorug‘lik" (火/日)	星 (yulduz), 明 (yorug‘), 闪 (chaqnoq), 烛 (sham)	Umid, samoviy go‘zallik va ichki kognitiv intilishlar vizualizatsiyasi.
"O‘simlik" radikali (艹)	花 (gullari), 草 (o‘tlar), 芽 (murtak), 茫 (cheksiz)	Tabiiylik, bolalikning begubor o‘sishi va tabiat bilan uyg‘unlik.

Bin Sin klassik she’riyat qoliplaridan voz kechib, erkin vaznda yozgan bo‘lsa-da, uning matnlarida xitoy sintaktik tafakkurining asosi bo‘lgan parallelizm (对仗 — duìzhàng) saqlanib qoladi. Bu koinotdagi In va Yan muvozanatining sintaktik darajadagi in’ikosidir.

Shoiraning mashhur miniatyuralaridan birini sintaktik va semantik sathda tahlil qilaylik: 墙角的花！

当你孤芳自赏时，
天地便小了。

Qiángjiǎo de huā!

Dāng nǐ gū fāng zì shǎng shí,

Tiāndì biàn xiǎo le.

O'zbekcha tarjimasi:

Devor bag'ridagi gul,

Husningga o'zing shaydo.

Bo'libsan kibrga qul,

Toraydi keng bu dunyo...

(D.Sodiqova tarjimasi)

Ushbu matnda lisoniy opozitsiya va mikrosintaktik parallelizm o'ta nozik qurilgan. Bir tomondan 墙角 (**qiángjiǎo** — **devor burchagi**) lokativ birligi (cheklangan fazo) tursa, ikkinchi tomondan unga muqobil ravishda 天地 (**tiāndì** — **osmon va yer**) ya'ni Koinot (cheksiz fazo) kategoriyasi qo'yiladi. Sintaktik sathda shoira "Gul" va "Koinot" tushunchalarini o'zaro nisbatlaydi. Matndagi "She'r ko'zi" (诗眼 — **shīyǎn**) bu — 小 (**xiǎo** — **kichik/toraymoq**) fe'l-sifatidir. Gul o'z hovlisi yoki burchagida o'ziga bino qo'yishi bilan dunyo uning kognitiv xaritasida qisqarib ketadi. Ushbu lisoniy qurilma minimal so'zlar bilan maksimal falsafiy konsepsiyani ochib beradi.

M.A.K. Xallidey (M.A.K. Halliday) asos solgan "Tizimli funksional tilshunoslik" prinsiplari bo'yicha, matndagi tranzitivlik (及物性 — **jíwùxìng**) insonning olam haqidagi tajribalarini "holat" va "jarayon" orqali ifodalaydi. Bin Sin ijodida "Ona" arxitektip ko'pincha "Dengiz" metonimiyasi va metaforasi orqali lisoniy reallikka aylanadi:

母亲啊！

天上的风雨来了，

鸟儿躲到它的巢里；

心中的风雨来了，

我只躲到你的怀里。

Mǔqīn a!

Tiānshàng de fēngyǔ lái le,

Niǎo'er duǒ dào tā de cháo lǐ;

Xīnzhōng de fēngyǔ lái le,

Wǒ zhǐ duǒ dào nǐ de huái lǐ.

O'zbekcha tarjimasi:

Onajon, eshsa to'fon,

Ko'kda bo'ron boshlansa,

Qushcha uyaga shoshar,

Agar osmon yoshlansa.

Qalbmida tursa alam,

Cheksam ozor, dardu oh,

Sening issiq bag'ringdan

Izlayman faqat panoh...

Ushbu mikromatnda shoira mukammal kognitiv parallelizm va metaforik ko'chish yaratgan. Matnda ikki xil "bo'ron" (风雨 — fēngyǔ) parallel sathda harakatlanadi:

1. **Denotativ / Tashqi sath:** 天上的风雨 (tiānshàng de fēngyǔ — osmondagi bo'ron-yomg'ir).

2. **Konnotativ / Ichki kognitiv sath:** 心中的风雨 (xīnzhōng de fēngyǔ — qalb darchasidagi bo'ron).

"Uya" va "Bag'ir" birliklari ekvivalent leksik-semantik mikromaydonda kelib, shoira ona bag'rini butun borliqdagi eng xavfsiz va boshlang'ich makon (arxip) sifatida lisoniy muhrlaydi.

Xulosa. Xitoy lingvopoetika maktabining tahlil metodlari asosida Bin Sin she'riyatini tadqiq etish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

Bin Sin zamonaviy erkin she'riyat (Xīnshī) uslubida ijod qilgan bo'lsa-da, klassik til tafakkurining *Wénzhì* (nafosat muvozanati) va *Duìzhàng* (parallelizm) qonuniyatlariga qat'iy rioya qilgan.

Shoira she'rlarining lingvopoetik o'ziga xosligi uning iyeroglifik tabiati bilan uzviy bog'liq bo'lib, matn sathida muayyan radikallarning (masalan, suv va yorug'lik kalitlarining) maqsadli to'planishi vizual va emotsional dominantlikni ta'minlaydi.

Uning lirik miniatyuralaridagi "She'r ko'zi" (shīyǎn) vazifasini bajaruvchi kalit so'zlar butun boshli matnning kognitiv xaritasini o'zgartirish va falsafiy umumlashtirish quvvatiga ega.

Bin Sin she'riyatidagi kognitiv metaforalar (Ona — Dengiz/Uya) lisoniy strukturada tranzitivlik va emotsional qutbiylikni ta'minlab, shoira uslubiga xos bo'lgan o'ziga xos unikal "mayinlik va nafosat" (婉约 — wǎnyuē) estetikasini yuzaga keltirgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI / REFERENCES

1. Halliday, M.A.K., & Matthiessen, C.M.I.M. *An Introduction to Functional Grammar* (4th ed.). – London: Routledge, 2014. – 786 p.
2. Shen Dan. *Literary Stylistics and Narrative Theory: A Co-textual and Contextual Approach*. – London & New York: Routledge, 2014. – 232 p.
3. 冰心. 繁星·春水 (Bīng Xīn. Fánxīng · Chūnshuǐ). – 北京: 人民文学出版社 (People's Literature Publishing House), 2010. – 185 b.
4. 启功. 诗文声律论稿 (Qǐ Gōng. Shī Wén Shēng Lǜ Lùn Gǎo). – 北京: 北京师范大学出版社 (Beijing Normal University Press), 2000. – 280 b.
5. 蒋绍愚. 唐诗词句研究 (Jiǎng Shàoyú. Táng Shī Cíhuì Yánjiū). – 北京: 北京大学出版社 (Peking University Press), 2010. – 394 b.
6. 王力. 汉语诗律学 (Wáng Lì. Hànyǔ Shīlǜxué). – 北京: 中华书局 (Zhonghua Book Company), 2005. – 920 b.

7. 王希杰. 汉语修辞学 (Wáng Xījié. Hànyǔ Xiūcíxué). – 北京: 商务印书馆 (Commercial Press), 2004. – 540 b.
8. 束定芳. 认知语义学 (Shù Dìngfāng. Rènzhī Yǔyìxué). – 上海: 上海外语教育出版社 (Shanghai Foreign Language Education Press), 2008. – 465 b.

